

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MILLIY O‘YINLARDAN  
FOYDALANISH USULLARI**

**Muhammadjonova Diyorabonu Saminjon qizi**

*Qo‘qon universiteti, Ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi  
4-bosqich talabasi*

*E-mail: [muhhammadjonovadiyora7@gmail.com](mailto:muhhammadjonovadiyora7@gmail.com)*

**Umurzakova Kommuna Xursanovna**

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi O‘qituvchisi,*

*E-mail: [ukommuna@gmail.com](mailto:ukommuna@gmail.com)*

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanishning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari, ularning o‘quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, jamoaviylik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi o‘rnini yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida o‘yinlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Milliy o‘yinlar, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, didaktika, innovatsiya, faol o‘quv metodlari.*

**Kirish.** Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloq qilish, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasiga doir qabul qilingan qaror va farmonlarda bu borada aniq vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi qarorda: “Milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib borish, o‘quvchilarda vatanparvarlik, halollik va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi”<sup>59</sup> Boshlang‘ich ta’limda milliy o‘yinlardan foydalanish – bu faqat didaktik vosita emas, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun xizmat qiladigan samarali tarbiya usulidir.

**Milliy o‘yinlarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni.**

Milliy o‘yinlar xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosining bir qismidir. Ular bolalarda og‘zaki ijod, tezkor fikrlash, harakat koordinatsiyasi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Pedagog olima G‘.Jabborovaning fikricha: “Milliy o‘yinlar yosh avlodni o‘zbek xalqining qadriyatlari bilan tanishtirishda, ularni jamiyatga moslashtirishda samarali vositadir”<sup>60</sup> G‘. Jabborovaning milliy o‘yinlar haqidagi fikrini to‘la qo‘llab-quvvatlayman. Darhaqiqat, milliy o‘yinlar bolalarning nafaqat jismoniy

<sup>59</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-sen qarori

<sup>60</sup> “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, Jabborova G., 2021.

faolligini oshiradi, balki ularning ruhiy va ma'naviy rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida o'zbek xalqining qadriyatlarini farzandlarimiz ongiga singdirish dolzARB vazifadir. Milliy o'yinlar aynan shu ehtiyojga javob beruvchi qudratli vositadir.

Ushbu o'yinlar orqali bolalar bir-biriga yordam berish, navbat kutish, adolatli bo'lish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar. Bundan tashqari, har bir milliy o'yinning o'ziga xos qoidalari va ramziy ma'nosi bor – ular orqali bolalar o'z xalqining urf-odatlari, axloqiy qarashlari va hayot falsafasini amaliy tarzda anglaydi. Shu boisdan ham, boshlang'ich ta'linda milliy o'yinlardan foydalanish nafaqat didaktik, balki tarbiyaviy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega.

### **Boshlang'ich sinf darslarida qo'llanilishi**

Milliy o'yinlardan boshlang'ich sinflarda quyidagi usullar asosida foydalanish mumkin:

- Didaktik o'yinlar shaklida:** masalan, "Kim chaqqon?", "Top o'yini", "Zakovatli bola" kabi o'yinlar orqali matematik hisob-kitob, so'z boyligini oshirish mumkin.

- Tarbiyaviy darslar davomida:** milliy urf-odat va qadriyatlarni aks ettiruvchi rolli o'yinlar yordamida o'quvchilarda ijobiy axloqiy fazilatlar shakllantiriladi.

- Jismoniy tarbiya darslarida:** "Ko'zbog'lamachilik", "Arqon tortish", "Uloq" kabi harakatli o'yinlar o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim o'rinnutadi.

Pedagog-tadqiqotchi M. Xalilov ta'kidlaydi: "Boshlang'ich ta'linda milliy o'yinlardan foydalanish bolalarda faqat bilim emas, balki hissiy intellekt va shaxsiy fazilatlar rivojiga ham xizmat qiladi"<sup>61</sup> M. Xalilovning ta'kidiga to'liq qo'shilaman. Haqiqatan ham, milliy o'yinlar faqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilib qolmay, balki ularning hissiy-ruhiy olami, shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun o'yin – bu nafaqat o'yinchoq bilan o'ynash emas, balki hayotiy tajriba orttirish, his-tuyg'ularni boshqarish va boshqalar bilan hamkorlik qilish maktabidir.

Milliy o'yinlarda bolalar g'alaba qilish, mag'lubiyatni qabul qilish, boshqalarga yordam berish, o'zini tutish kabi muhim ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni shakllantiradilar. Bu esa ularning hissiy intellekti – ya'ni o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Aynan shu fazilatlar kelgusida bolalarning sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Shunday ekan, pedagoglar milliy o'yinlarni faqat darslarni jonlantirish vositasi sifati da emas, balki bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy resurs sifatida baholashlari zarur.

### **Innovatsion yondashuvlar**

<sup>61</sup> "Pedagogika va psixologiya" jurnali, Xalilov M., 2020.

Bugungi kunda ta’limda innovatsion texnologiyalar bilan birlgilikda milliy o‘yinlarni uyg‘unlashtirish orqali darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali qilish mumkin. Bunda QR-kodli topshiriqlar, interaktiv doska orqali o‘ynaladigan test o‘yinlar va guruhli tanlovlardan (masalan, “Zakovat”, “Qizil-yashil”) kabilalar muhim rol o‘ynaydi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo’lsak. Boshlang‘ich ta’limda milliy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni jamoa bo‘lib ishlashga, qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi. O‘yinlar orqali o‘zlashtirilgan bilimlar chuqrarroq va bardavom bo‘ladi. Shu bois, pedagoglar har bir dars jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanishni o‘z amaliy faoliyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-soni qarori.
2. Jabborova G. (2021). *Milliy o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati*. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, №3.
3. Xalilov M. (2020). *Boshlang‘ich sinflarda interaktiv o‘yinlardan foydalanish yo‘llari*. “Pedagogika va psixologiya” jurnali, №2.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-soni Farmoni “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” tamoyili asosida umumiy o‘rtacha ta’lim sifatini oshirish to‘g‘risida”.
5. Xodjayev A. (2018). *Milliy qadriyatlar va yosh avlod tarbiyasi*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.